



## Tuproqqal'a- mamlakatimizning antik davr tarixi va madaniyatining ajoyib yodgorligi

*Xusanova Gulchiroy Sherali qizi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi*

*husanovagulchiroy4@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: I.B.Xudoynazarov*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada antik davrda barpo etilgan hamda bir qancha muddat poytaxt vazifasini bajargan Tuproqqal'a yodgorligi atroflicha tahlil qilinadi. Milodiy II IV asrlarda Qadimgi Xorazm davlatining poytaxti bo'lgan Tuproqqa'la manzilgohi o'sha davr Janubiy Orol bo'yidagi eng yirik madaniy markazlaridan hisoblangan. Yodgorlik qo'li gul hunarmandlar tomonidan o'sha davrdagi harbiy arxitektura yutuqlari namunasida qurilgan bo'lib, uning joylashuvi shahar qad ko'targan atrof muhit tozaligiga, maydonning aniqligiga, qurulish materiallari sifati va boyligiga, yer tuzulishi, turli tabiat ofatlari va boshqa vaziyatlarni hisobga olgan holda rejalashtirilgan. Umuman olganda, mazkur maqola orqali qal'aning o'rganilish darajasi, joylashuvi, tuzulishi, tarixiy davrlardagi rivojlanishi hamda tanazulga yuz tutishi, antik Xorazm jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlari, masalalari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Quyi Amudaryo havzasi, Xorazm ekspeditsiyasi, S.P.Tolstov, Tuproqqal'a yodgorligi, Sariqqamishbo'yi, Kushonlar imperiyasi, Ayazqal'a, Olovli ibodatxona, burjlar, Markaziy Massiv, Kanishka, Artav tangalari, ravoqlar, labirintli darvoza

Mamlakatimiz antik davr tarixi va madaniyatining ajoyib yodgorligi bo'lgan, o'zining yorqin va betakror san'ati, rang-barang devoriy rasmlari, loydan yasalgan haykaltaroshlik va monumental me'morchiligi bilan butun jahon hamjamiyati hayratiga sabab bo'lgan Tuproqqal'a kompleksi bir necha asrdan buyon buyuk Xorazm cho'llarida savlat ila yastanib yotibti. Hozirda ushbu yodgorlik joylashuvi, Amudaryoning quyi oqimida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanidagi Beruniy shahridan 50 km uzoqlikda, xususan Sulton Uvays tog' tizmasi bilan o'ralgan tekislikda to'g'ri keladi.<sup>1</sup> Aytib o'tishimiz joizki, XX asrning 30-yillarigacha Quyi Amudaryo havzasidagi antik davrga mansub hech bir tarixiy obida arxeologik jihatdan o'rganilmagan edi. Aynan Xorazm vohasi antik davr manzilgohlarini tadqiq etish ishlari S.P.Tolstov rahbarligidagi 1937-1940 yillardagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi bilan bog'liqdir. Ushbu davr mobaynida Xorazm vohasi va unga tutash bo'lgan Sariqqamishbo'yi havzalarida 400 dan ziyod qishloq va shahar xarobalari topilib, Xorazm xaritasiga joylashtirildi. Topilgan xarobalarning aksariyati antik davr asosiga ega bo'lib, ajdodlarimiz tomonidan qad ko'tarilgan ushbu yodgorliklarning ko'pchiligi Oqchadaryo havzasida joylashgan edi. Bundan kelib chiqadiki Tolstov va uning safdoshlari olib borgan ekspeditsiyaga ko'ra, buyuk olim Abu Rayhon Beruniyning "Ular (ya'ni xorazimliklar) daryoning o'ng va so'l sohilidagi sarhadlarda 300 dan ziyod shaharlar qurganlar, ularning xarobalari hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan" deb qayd etgan xulosasi ilmiy jihatdan o'z isbotini topgan.<sup>2</sup>

Kushonlar davriga oid O'rta Osiyo shaharlari orasida eng ko'zga ko'ringan va chuqur tadqiq etilgan joylardan biri Tuproqqal'adir. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Quyi Amudaryo hududidagi qadimiy shahar xarobalarini o'rganish ishlari XX asrning 30 yillaridan boshlab keng miqyosda olib borildi. Hozirda Ellikqal'a tumanidagi "Qizqal'a" fermer xo'jaligi xududida joylashgan Tuproqqal'a yodgorligini o'rganish ham ayni shu davrda, ya'ni 1938 yildan boshlangan edi. Birinchi marta so'nggi antik Xorazmning yorqin va betakror san'ati, rang-barang devor rasmlari, loydan bo'yalgan

<sup>1</sup>. Kalmurotova T, Nurmaganbetova J, Sapparbaeva J, "Labirintli Tuproqqal'a" 2023 yil 4 april 99-bet [www.interonconf.org](http://www.interonconf.org)

<sup>2</sup>. Karimov Y.A., Sa'dullaev D.X. Tuproqqal'a antik davr moddiy va manaviyati xazinasi. -Xiva, 2014. -B.52



haykaltaroshlik, monumental me'morchilik haqida ma'lumotlar paydo bo'ldi S.P.Tolstov o'zining "Топрак-кала Дворец" asarida ushbu arxeologik yodgorlik topilishi haqida shunday tavsirlagan edi:<sup>3</sup>

"1938 yil oktyabr oyining tiniq oqshomida bizning kichik razvedkachilar guruhimiz bilan Kushon sulolasi davriga oid Ayazqal'a qal'asi devorlariga ko'tarildik hamda, 60 metr balandlikdan keng so'qmoqning maydoni o'tdik va oldimizda yo'l ochildi. Janubda va sharqda, olis g'arbda xarobalar bilan o'ralgan siluetlar bilan bir qatorda yalpoq taqirlar, qumlar va sho'r botqoqlardan iborat tekislik ortidan, ufqning shimoliy chekkasida qum bilan qoplangan uch minorali qal'aning ulkan xarobalari konturi paydo bo'ldi. "Bu qanday qal'a?" – deb so'radim yo'l boshchimizdan. "Bu Tuproq-qal'a. U yerda hech qanday qiziq narsa yo'q." - javob berdi."

Afsuski, Tuproqqal'aning o'rganilish ishlari uzoqqa cho'zilmadi. 1940-yilda Ikkinchi jahon urush boshlangan so'ng Tuproqqal'adagi qazishmalar bir muddatga to'xtatildi. Moskva yaqinidagi janglarda razvedkachi artilleriyachi bo'lib xizmat qilgan kapitan Tolstov og'ir yaralandi. U 1945-yilda Xorazmga qaytib keldi va 1950-yilgacha Qadimgi Xorazm hududini arxeologik-etnografik ekspeditsiyalarining asosiy ish ob'yektiga aylantirdi. Ushbu qazishmalar davomida olimning shogirdi bo'lgan Yu.A.Rapoport unga katta yordam berdi. E. E. Nerazik boshchiligidagi otryad yodgorlik haqida kata to'plam nashr etishga tayyorgarlik ko'rish munosabati bilan 1965-1976 yillarda shahar bloklarini qazishni boshlashadi va 1981-yilda Tuproqqal'a manzilgohi to'g'risida monografiya nashr etildi. Bu monografiyada devor rasmlari va haykallar bilan bezatilgan 150 ga yaqin xonalarning tavsifi va talqini berilgan (Taxt xonasi, Shohlar zali, G'alabalar zali, Raqs maskalari zali, Jangchilar zali).<sup>4</sup> Manzilgoh hududida joylashgan Hukmdorlar saroyida ham Yu.A.Rapoport boshchiligidagi qo'shimcha tadqiqotlar olib boriladi hamda izlanishlar natijalari umumlashtirilgan holda 1984-yilda kitob holda nashr etildi.<sup>5</sup> Tuproqqal'a manzilgohidan 100 m shimolda joylashgan quyi hududida 1976-1982-yillarda stansionar qazishmalar olib borildi va u yerdan bir vaqtda qurilgan 12 ta bino va 150 ga yaqin xona ochib o'rganildi.<sup>6</sup> 1984-yilda 1945-1950-hamda 1965-1972-yillarda Tuproqqal'adagi arxeologik tadqiqot ishlari natijalari sifatida "Топрак-кала Дворец" kitobi nashr qilindi.<sup>7</sup> Bu yodgorlik bo'yicha respublikamiz olimlari ham bir qancha ishlarni amalga oshirishgan. Xususan, G'ayratdin Xojaniyazov va Jolmirza Hakiminiyazovlar boshchiligidagi 2004-yilda Nukusda nashr qilingan «Qoraqalpog'is-tonning yetti ajoyib yodgorligi» kitobida Tuproqqal'a yodgorligiga chuqur tahlil qilingan.<sup>8</sup> Hozir ushbu yodgorlik YUNESKO tashkilotining jahon merosi ro'yxatiga ham kiritilgan.

Tuproqqal'a toponimikasi boshqa antik davr manzilgohlariga qaraganda o'ziga xos bo'lib, shahar tarxi to'rtburchak shaklda qurilgan. Manzilgohning umumiy maydoni 17.5 ga ya'ni 500x300 m kattalidagi hududda joylashgan bo'lib, o'sha vaqtdagi harbiy arxitektura yutuqlari namunasidagi eng noyob kompleksidir. Shahar qurilishi o'sha davrdagi asov Amudaryoning mavsumiy harakatiga ham uzviy bog'liq bo'lgan. Ya'ni Amudaryo o'z oqimini o'zgartirgan holatda ham shahar o'rni mutlaqo xavfsiz yerda joylashgan. Shahar darvozasidan kirish uning tuzilishini bilmagan odamlar uchun qiyinchilikni tug'dirgan. Sababi, darvoza oldidagi labirintli, ya'ni, tuyuq qo'ltiqchalarga ega qo'shimcha qurilish o'z navbatida dushman xavf tug'durganda mudofaa bo'lib xizmat qilgan. Antik davrda ikki qatorli devor bilan o'rab olingan hamda, uning atrofidan xandaq ham qazilgan. Bu xandaqdan qal'a tomon uning janubiy devor o'rtasidagi osma ko'priq orqali kirilgan. Tashqi mudofaa devor qalinligi 2.20 sm, ichki tomon devor esa 1.20 sm, umumiy devor qalinligi esa 6 m ni tashkil etadi. Tashqi va ichki devor dastavval paxsadan, keyinchalik kvadrat shakldagi g'ishtdan (40x40x10)

<sup>3</sup> .Рapoпорт Ю. А., Неразик. Е. Е. Топрак-кала Дворец // -М., 1984 -С.6

<sup>4</sup> .Рapoпорт Ю. А., Неразик. Е. Е. Топрак-кала Дворец // -М., 1984 5 bet

<sup>5</sup> .Неразик Е.Е. Раскопки городища Топраккала. // КСИА АН. №132. - М., 1972. 23-43,508,509,539,540 betlar

<sup>6</sup> .Karimov Y.A., Sa'dullaev D.X. Tuproqqal'a antik davr moddiy va manaviyati xazinasi. –Xiva.,-2014 53-bet

<sup>7</sup> .Толстов С. П. Древний Хорезм. М.: Изд-во МГУ, 1984. 6-bet

<sup>8</sup> .Kalmurotova T, Nurmaganbetova J, Sapparbaeva J, "Labirintli tuproqqal'a" 2023 yil 4 april 101-bet

[www.interonconf.org](http://www.interonconf.org)



tiklangan bo‘lib, g‘ishtlarda turli tuman tamg‘alar (ikki nuqta, yarim yoki to‘lin oy shakli, turli xarflar kabi) mavjud. Tashqi devor yon tomondan to‘g‘ri to‘rtburchakli burjlarlarga ega bo‘lib, ularning o‘rtasidagi mudofaa maydoni 27 m ni, old tomonga surulib chiqishi esa 5 m ni tashkil etadi. Tashqi devor hamda uning burjilarida ham nayza o‘qli shinaklar mavjud va ularning o‘rtasidagi oraliq maydon 1.10-1.30 m chiqadi.<sup>9</sup> Tashqi devorning janubiy qismida esa Darvoza joylashganligini va qal‘aning bu qismida burjlar yo‘qligini ko‘ramiz. Aynan shu darvozadan shimol tomon kengligi 9 metrni tashkil qiladigan yo‘l o‘tgan bo‘lib, bu o‘z navbatida shaharni ichki tuzulishini 2 qismga bo‘lib turgan. Bu markaziy ko‘cha shaharning shimoli-g‘arbiy qismida 180x180 m maydonni egallagan saroy maydoniga yoki qal‘aga olib boradigan yo‘l bo‘lgan.<sup>10</sup> Unga perpendikulyar bo‘lgan xiyobonlar va zallar binoni bir necha bloklarga bo‘lgan. Ularning aksariyati turar joy edi, lekin ba‘zi joylarida E. E. Nerazik ko‘rsatganidek, ibodatxonalar ham bor edi. 1938-1940 yillarda tadqiqot davomida qal‘a ichida S.P.Tolstov olovli ibodatxona deb ta‘riflagan noyob inshootning sxemasi kuzatildi. S.P.Tolstovning urushgacha bo‘lgan tadqiqotlariga ko‘ra, bu yerda boshqa binolar qatorida 3-olovli ibodatxona ham bo‘lgan. Uning markazida keng xona (40-30 m) bo‘lib, atrofi qo‘sh devor bilan o‘ralgan, ichidan o‘tish joyi ham bor edi.<sup>11</sup> Hozir bu binolarning barchasidan faqat devorlarning asoslari, pol va poydevorlarning g‘isht qoplamalari qolgan.

Umuman olganda shaharning qurulishi 3 ta tarixiy bosqichni o‘z ichiga oladi. Biz ularni so‘nggi antik Xorazm shaharlarini o‘rganish muammolari va kushon-afrig‘ madaniyatining (milodning IV-VI asrlari) shakllanishi masalalari bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Birinchi tarixiy davrda Tuproqqal‘a 2 qatorli paxsa devor bilan o‘rab olingan bo‘lib (avval Markaziy massiv, keyin qo‘shimcha massivlar)saroy ancha uzoq vaqt davomida Xorazm podshohlari sulolaviy markazining hukmron inshooti sifatida foydalanilib kelingan. Dastlabki qazishmalarda birinchi davr belgilanishi, yodgorlik hayotining ushbu davri bilan bog‘liq bo‘lgan nisbatan kichik topilmalarga asoslangan edi. Bu majmuada ko‘plab idishlardan tashqari, bir qancha zargarlik buyumlari, qurol-yarog‘lar, tangalar (ularning eng qadimgisi Kanishka va Xorazm podshosi Artav tangalari) va arxivdan olingan oltita sanasi ko‘rsatilgan hujjatlar ham topilgan.<sup>12</sup> Tuproqqal‘ada sana ko‘rsatilgan hujjatlar asosan III asrga oidligini kuzatamiz. Albatta, tasodifan saqlanib va arxivda saqlanayotgan oltita iqtisodiy yozuvlar orasida eng qadimgi va eng so‘nggi hujjatlar bo‘lishi dargumon. Shubhasiz, bu arxiv saroyda kamida yetmish yil davomida to‘planib kelgan. Janubiy massivning qo‘shib olinishi bilan bog‘liq xatcho‘plarda ba‘zi hujjatlar topilganligi sababli, ular saroyning eng dastlabki yillarini va bundan tashqari, uning qurilgan vaqtini aniqlash qiyinchilik tug‘diradi. Umuman olganda, saroy tarixining birinchi davrini biz II va III asrlarning ikkinchi yarmi deb olsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu paytda saroy aholisi yoki (aniqrog‘i) egalari tashlab ketishgan. Olimlar izlanishlari davomida, harbiy xujum natijasida qurilishning vayron bo‘lishi bilan bog‘liq hech qanday izlar topilmadi. Podshohlar va sulola suratlari hamda xudolar haykallari yo‘q qilish belgilari ham qandaydir dushman sulolala tomonidan bosib olingandan keyin kutilishi kerak edi. Bu yerda esa faqat devorlardan bo‘yalgan gipsning asta-sekin tushishi va pollarda kichik loy allyuviy qatlamlar va qum konlarining to‘planishi kuzatilgan xolos. Ko‘rinib turibdiki, bu davrda bo‘sh saroy qandaydir tarzda qo‘riqlangan, biz buni ikkinchi davr deb ataymiz. Aholining shahardan ko‘chirilishining izlari yo‘q. Agar qirollik qarorgohi Tuproqqal‘adan qayoqqadir ko‘chirilgan deb taxmin qilsak, kuzatilgan manzara aniq bo‘ladi. Shu bilan birga, aynan Oliy saroy tashlab ketilganda, saroy me‘morchiligining eng muhim elementlari, qirol hokimiyatining o‘ziga xos belgilari yo‘q qilinganga o‘xshamaydi. Ammo ba‘zi barelyeflarni g‘isht bilan yotqizish orqali saqlab qolishga urinish ham borligi ko‘rishimiz mumkin.<sup>13</sup> Ikkinchi davrda yodgorlik qurulishida tashqi va ichki paxsa devorlar o‘rniga kvadrat shaklidagi

<sup>9</sup>.Karimov Y.A.,Sa‘dullaev D.X. Tuproqqal‘a antik davr moddiy va manaviyati xazinasi. –Xiva.,-2014 53-54betlar

<sup>10</sup>.Толстов С. П. Древний Хорезм. М.: Изд-во МГУ, 1948.121- bet

<sup>11</sup>.Рапорт Ю. А.,Неразик. Е. Е. Топрак-кала Дворец //-М., 1984 .118-bet

<sup>12</sup>.Вайнберг Б. И. Монеты древнего Хорезма. М., 1977, с. 52, 137; Монетные находки..., с. 128-bet)

<sup>13</sup>.Толстов С. П. Древний Хорезм. М.: Изд-во МГУ, 1948. 16-bet



g'ishtli devor bino qilinishi boshlagan. Jabubiy Darvoza oldi inshoot devori ham kvadrat g'ishtdan tiklangan va natijada u ham yuqori tomon rostlanadi. Bu davr nisbatan qisqa, chamasi o'n ikki-o'n uch yil davom etdi. Bu vaqt binolar ichida to'plangan cho'kindi va alliyuviy qatlam kichikligi ham ikkinchi davr qanchalik qisqaligidan dalolat beradi. Uchinchi davrga kelib g'ishtli devor ustki qismida ravoq shakliga ega bo'lgan to'g'ri to'rtburchakli yo'laklar paydo bo'la boshlaydi. Ularning qoldiqlari shimoliy hamda shimoliy-sharqiy burchagi devorlarida yaxshi saqlanib qolgan. Uning tashqi shimoliy devorida-4 ta, sharqida-12 ta, g'arbida-12 ta, janubida esa 4-ta burjlar aniqlanadi. Darvoza oldi labirintli devorda esa burjlar mavjud emas.<sup>14</sup> Bu davrda tashqi va ichki devorlar ravoq devorlari bilan birlashtirilgan bo'lib, ular o'rtasida yo'lak kengligi 2,50 sm ni tashkil etadi. Tuproqqal'a tarixining uchinchi davri taxminan IV asr o'rtalarida boshlangan va VI asrgacha davom etgan. Bu, taxmin, E. E. Nerazik tomonidan yaratilgan shahar tarixining ikkinchi bosqichiga to'g'ri keladi. Oliy saroyni qazish jarayonida olingan arxeologik materiallar orasida VI-VIII va hatto XII-XIII asrlarga oid topilmalar ham bor. Ularni faqat vaqti-vaqti bilan xarobalarga yashab yuradigan odamlar qoldirgan. Shu sababli, qolgan binolarning tegishli qatlamlari va izlarini faqat shartli ravishda yodgorlik hayotining to'rtinchi davriga bog'lash mumkin.<sup>15</sup>

Tuproqqal'aning shahar rivojlanishi masalasiga kelsak, shaharning asosiy xususiyatini yodda tutish kerak: bu, birinchi navbatda, diniy va ma'muriy markaz vazifasini bajargan. Bundan tashqari u ikkita ulkan Saroy ansambllari yonida rivojlangan shahar edi ( uch minorali "baland" saroy va Shimoliy majmua). Shahar aholisi ko'p jihatdan ushbu saroylarga xizmat qiluvchi turli darajadagi ishchilardan iborat bo'lgan.<sup>16</sup> Olimlarning tadqiqotiga ko'ra shahar aholisining umumiy soni taxminan 2000-2500 kishini tashkil qilishi mumkin, aholi zichligi esa (devorlar bo'ylab o'zlashtirilmagan hududlar va shimoliy-sharqiy burchakdagi hovuz 67,5 ming kvadrat metrni egallaganini hisobga olgan holda) - har bir gektarda 200 kishidan ortiq kishini tashkil qilardi. Agar biz uni boshqa shaharlar bilan solishtirsak, V.A. Shishkin ilk o'rta asrlarda Varaxshada aholi zichligini hisoblashda taxminan 1 gektarga 285 kishi to'g'ri kelishini, G. Frankfortning hisob-kitoblari esa, qadimgi Mesopotamiya shaharlarida har gektarga 45 kishidan zichroq bo'lganligini aniqlagan.<sup>17</sup> Bundan kelib chiqadiki o'rganayotgan shaharimiz o'z davrida yirik markaz vazifasini ham bajargan.

Qadimiy Xorazmning eng diqqatga sazovor madaniy yodgorliklaridan biri bo'lgan Tuproqqal'a manzilgohini o'rganishning qisqacha natijalari shuni ko'rsatadiki, shahar ijtimoiy hayoti va bir qadar rivojlanishi Kushon-Afrig' madaniyati bilan bevosita bog'liq. Yodgorlikdan topilgan ko'plab kulolchilik mahsulotlari, fil suyagidan yasalgan kichik haykalchalar, tangalar, sopol va bronza idishlar (uch oyoqli idishlar, chekkasi bo'ylab vertikal tutqichli piyola, tamg'alangan idishlar, ayrim turdagi qozonlar va boshqalar) O'rta Osiyoning bir qator boshqa shahar va aholi punktlariga, ayniqsa, Baqtriyadagi Kushon davri manzilgohlariga mos keladi. Turli xonalardan topilgan rangtasvir parchinlarda ham kushon davriga oid ornamental va rang-barang naqshlar assortimentlarini uchratamiz. Tasvirning o'ziga xos bezaklari, masalan rasmlarning kompozitsion dizaynida devor bo'shlig'ining rombik maydonlarga bo'linishi, xali ham O'rta Osiyoning xalqlari hunarmandchiligida - o'zbeklar, qoraqalpoqlar, qozoqlarning xalq to'qimachilik bezaklari tasvirlarida saqlanib qolgan.<sup>18</sup> Tuproqqal'a maskani mamlakatimiz tarixi va madaniyatining ajoyib yodgorligi bo'lib, undan topilgan 150 dan ziyod moddiy va ma'naviy manbalar antik davrda Xorazm jamiyati tarixida kechgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***


<sup>14</sup>.Karimov Y.A.,Sa'dullaev D.X. Tuproqqal'a antik davr moddiy va manaviyati xazinasini. -Xiva,-2014 yil 54 -bet

<sup>15</sup>.Толстов С. П. Древний Хорезм. М.: Изд-во МГУ, 1948. 17-bet

<sup>16</sup>.Н.Н.Миклухо Маклая Городище Топрак-Кала.//М.,1981139-bet

<sup>17</sup>.Рапорт Ю. А.,Неразик. Е. Е. Топрак-кала Дворец //-М., 1984 . 139-140 bet

<sup>18</sup>.Толстов С. П. По следам Древне Хорезмийской цивилизации.-М-Л.1948. 181-182-betlar



- 
1. Неразик Е.Е. Раскопки городища Топраккала. // КСИА АН. №132. - М., 1972.
  2. Рапорт Ю. А.,Неразик. Е. Е. Топрак-кала Дворец //-М., 1984 .
  3. Kalmurotova T, Nurmaganbetova J, Saparbaeva J, “Labirintli tuproqqal‘a“ 2023 yil 4 april
  4. Karimov Y.A.,Sa‘dullaev D.X. Tuproqqal‘a antik davr moddiy va manaviyati xazinası. – Xıva.,-2014
  5. Толстов С. П. Древний Хорезм. М.: Изд-во МГУ, 1948.
  6. Is‘hoqov M.M.,Alimova R. R. Arxivshunoslik o‘quv qo‘llanma.,Toshkent.,2017.
  7. Вайнберг Б. И. Монеты древнего Хорезма. М., 1977, с. 52, 137; Она же. Монетные находки..., с. 128.)
  8. Н.Н.Миклухо Маклая Городище Топрак-Кала.//М.,1981
  9. Толстов С. П. По следам Древне Хорезмийской цивилизации.-М-Л.,1948.
  10. <http://townevolution.ru/books/item/f00/s00/z0000025/st002.shtml>